

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDINING MIQDORI HOLATI TAXLILI

Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li

"O'zdavyerloyiha" DILI q.x.f.f.d, (PhD) safayev77@mail.ru

Sharopov Ramziddin Najmiddinovich

O'zdavyerloyiha" DILI Metodologiya bo'limi mutaxassisi, q.x.f.f.d, (PhD)
ramziddin.sharopov@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi yer fondining miqdori holati taxlili va yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra mamlakat yer fondi toifalari bo'yicha ma'lumot, yer axborot tizimi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, o'rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, zaxira yerlar, GAT.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son Farmoni talablariga ko'ra 2021-yil 1-yanvardan boshlab yer turi, konturi, chegarasi va huquq egalari haqidagi barcha ma'lumotlar Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritilishi, onlayn geoportal Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinishi, yer balansi va uning hisoboti, tuman (shahar) yer kadastri daftari faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritilishi, Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geoaxborot tizimida shakllantirilishi, tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari Milliy geoaxborot tizimiga faqat telekommunikatsiya tarmoqlari orqali to'g'ridan-to'g'ri taqdim etib borilishi belgilab berilgan va bu borada ishlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar qabul qilinib, vakolatli organlar tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishga kirishilgan [4].

O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining 2023-yil 1-yanvar holati bo'yicha tuzilgan Milliy yer hisoboti ma'lumotlariga ko'ra Respublikamizning ma'muriy chegarasidagi umumiylar maydoni 44 mln. 892,4 ming hektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4336,1 ming hektarni yoki 9.7% tashkil etadi.

**Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies
Hosted online from Moscow, Russia**

Date: 11th May, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

1-jadval Ўзбекистон Республикасидаги жами фойдаланиладиган ерлар майдони

(минг га. хисобида)

| T/р | Республика, шаҳар ва вилоятларнинг номи | Умумий ер майдони | | Экин ерлар | | Кўп йиллик дараҳтзорлар | | Бўз ерлар | | Пичанзор ва яйловлар | | Жами кишлок хўжалик ерлари | | Томорка ерлари | | Ўрмонзорлар | | Богдорчилик, узумчилик ва сабзавотчилик ўшишмаларининг ерлари | | Бугазорлар | Бонка ерлар |
|-----|---|-------------------|----------------------------|------------|----------------------------|-------------------------|----------------------------|-----------|----------------------------|----------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------|----------------------------|-------------|----------------------------|---|----------------------------|------------|-------------|
| | | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | жами | шу жумладан суторниадигани | | |
| 1 | Коракалпогистон Республикаси | 16656,1 | 517,0 | 418,8 | 418,8 | 8 | 8 | 14,2 | 14,2 | 5265,4 | 35,8 | 5706,4 | 476,8 | 52,5 | 39,4 | 1074,1 | 0,8 | 0,1 | 0,1 | 1270,1 | 8528,2 |
| 2 | Андижон | 430,3 | 280,6 | 200,1 | 200,1 | 31,4 | 31,4 | 2,6 | 0,5 | 21,1 | 08 | 255,2 | 232,8 | 58,5 | 43,9 | 3,9 | 3,9 | 0,3 | 0,3 | 0,0 | 111,8 |
| 3 | Бухоро | 4183,1 | 276,3 | 200,1 | 200,1 | 21,0 | 21,0 | 7,0 | 7,0 | 2557,5 | 0,0 | 2785,6 | 228,1 | 59,6 | 46,5 | 334,6 | 1,7 | 0,3 | 0,2 | 45,3 | 954,0 |
| 4 | Жиззах | 2117,9 | 304,9 | 504,1 | 259,9 | 42,5 | 18,4 | 11,3 | 1,7 | 704,7 | 0,0 | 1262,6 | 280,0 | 34,5 | 20,3 | 163,8 | 4,6 | 0,1 | | 0,1 | 652,4 |
| 5 | Қашқадарё | 2856,8 | 513,3 | 675,4 | 417,3 | 38,9 | 36,6 | 21,9 | 4,6 | 1406,5 | 0,1 | 2142,7 | 458,6 | 80,4 | 48,7 | 164,2 | 6,0 | 0,3 | 0,4 | 0,0 | 450,8 |
| 6 | Навоий | 10948,1 | 126,4 | 122,5 | 91,4 | 10,3 | 9,6 | 6,8 | 6,7 | 8890,5 | 0,0 | 9030,1 | 107,7 | 26,4 | 17,1 | 1270,8 | 1,6 | 0,7 | 0,3 | 0,0 | 618,0 |
| 7 | Наманган | 743,3 | 289,7 | 185,0 | 185,0 | 48,9 | 48,9 | 2,5 | 2,5 | 164,9 | 0,0 | 401,3 | 236,4 | 61,4 | 48,3 | 22,6 | 5,0 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 257,3 |
| 8 | Самарқанд | 1677,3 | 378,9 | 423,9 | 243,1 | 72,4 | 66,9 | 5,2 | 0,0 | 796,5 | 0,0 | 1298,0 | 310,0 | 87,2 | 62,9 | 13,0 | 6,0 | 0,7 | 0,3 | 0,0 | 275,5 |
| 9 | Сурхондарё | 2009,9 | 324,8 | 277,9 | 238,4 | 34,2 | 32,8 | 0,3 | 0,0 | 824,6 | 0,0 | 1137,0 | 271,2 | 63,2 | 50,3 | 233,3 | 3,3 | | | 0,0 | 575,1 |
| 10 | Сирдарё | 427,6 | 287,2 | 248,9 | 248,9 | 7,7 | 7,7 | 10,2 | 10,2 | 19,9 | 0,0 | 286,7 | 266,8 | 20,6 | 16,3 | 4,2 | 4,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 112,1 |
| 11 | Тошкент | 1515,0 | 393,7 | 322,2 | 289,5 | 54,7 | 45,0 | 0,8 | 0,4 | 445,0 | 1,4 | 822,7 | 336,3 | 67,0 | 54,9 | 81,0 | 2,5 | 3,6 | 3,5 | 2,3 | 541,8 |
| 12 | Фарғона | 675,3 | 367,3 | 242,0 | 242,0 | 54,9 | 54,9 | 0,0 | 0,0 | 9,5 | 3,9 | 306,4 | 300,8 | 72,9 | 52,5 | 14,6 | 14,0 | 0,9 | 0,9 | 0,0 | 279,5 |
| 13 | Хоразм | 608,2 | 267,6 | 205,3 | 205,3 | 13,1 | 13,1 | 3,8 | 3,8 | 109,3 | 0,0 | 331,5 | 222,2 | 54,0 | 45,3 | 53,6 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 168,0 |
| 14 | Тошкент Ш. | 43,5 | 8,4 | 2,3 | 2,3 | 0,5 | 0,5 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 2,8 | 2,8 | 10,1 | 5,6 | 0,0 | 0,0 | | | 0,0 | 30,6 |
| | Жами: | 44892,4 | 4336,1 | 4028,5 | 3242,1 | 438,5 | 394,8 | 86,6 | 51,6 | 21215,4 | 42,0 | 25769 | 3730,5 | 748,3 | 552,0 | 3433,7 | 53,6 | 7,3 | 6,3 | 1317,9 | 13555,1 |

1-jadval. Respublika bo‘yicha jami foydalanishidagi yer maydonlarining hududlar kesimidagi taqsimoti.

Yer fondining barcha toifalarida ekin yerlar 4028,5 ming гектарни, ko‘p yillik daraxtzorlar 438,5 ming гектарни, bo‘z yerlar 86,6 ming гектарни, pichanzor va yaylovlar 21215,4 ming гектарни, jami qishloq xo‘jaligi yerlari 25769 ming гектарни, tomorqa yerlar 748,3 ming гектарни, o‘rmonzorlar 3433,7 ming гектарни, butazorlar 1317,9 ming гектарни tashkil etadi [1].

Yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra mamlakat yer fondi quyidagi toifalarga bo‘linadi [2], jumladan,



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th May, 2023

ISSN: 2835-5733


Website: econferenceseries.com

- 1) **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar** - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. (O‘zbekiston Respublikasi yer fondining asosiy toifasi hisoblanadi va ushbu toifaning jami maydoni 26 mln. 232,3 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 58,4 foizini tashkil etadi). Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarga, shuningdek, haydaladigan yerlar, bo‘z yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;
- 2) **aholi punktlarining (shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari** - shaharlar va shaharchalar, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 225,8 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 0,50 foizini tashkil etadi);
- 3) **sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar** - ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 767,7 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 1,71 foizini tashkil etadi);
- 4) **tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar** - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 3 mln 222,7 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 7,18 foizini tashkil etadi);
- 5) **tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar** - moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 14,8 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 0,03 foizini tashkil etadi);
- 6) **o‘rmon fondi yerlari** - o‘rmon bilan qoplanlangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 11 mln. 718,1 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 26,1 foizini tashkil etadi);
- 7) **suv fondi yerlari** - suv ob’ektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv ob’ektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 827,2 ming gektarni yoki Respublika umumiyligi maydonining 1,84 foizini tashkil etadi);

8) **zaxira yerlar** - yuqorida ko‘rsatilgan yer fondi toifalariga kiritilmagan barcha yerlar (ushbu toifaning jami maydoni 1 mln. 863,8 ming gettarni yoki Respublika umumiy maydonining 4,15 foizini tashkil etadi).

Quyidagi rasmlarda yer fondi toifalari, shuningdek yer turlarining mamlakat umumiy maydonga nisbatan solishtirilgan diagramma ko‘rinishida tasvirlanmoqda.

1-rasm



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi. Yerdan foydalanishning ko‘p maqsadli xarakterda bo‘lishi yer resurslaridan



foydalanishning tabiiy, xo‘jalik huquqiy holatini xarakterlovchi sifatli axborotlarga nisbatan ko‘pgina talablarni taqozo etadi.

Yer axboroti yerdan oqilona hamda samarali foydalanishni tashkil etish uchun zarur. U yer resurslaridan samarali foydalanishda boshqarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Yer to‘g‘risidagi axborotlarining eng aosiy foydalanuvchilari davlat hokimiyati organlari, soliq xizmati, ishlab chiqarish savdo obyektlarini va xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish xususiyashtirish, ko‘chmas mulk bozori, ipoteka instituti, sug‘urta agentligi, ko‘plab yuridik va jismoniy shaxslardir [3].

Yer axborot tizimi iqtisodiy axborot tizimining tarkibiy qismi yoki boshqa ko‘rinishidir, chunki uning mazmuni yerdan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog‘langan ko‘p maqsadli jarayonlarning tavsifi hisoblanadi. Yer axborot tizimi sun‘iy tizim bo‘lib, bunda uning ma’lumotlar to‘plami organik, mantiqiy bog‘lanib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini boshqarish tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarish tizimi bilan birgalikda tabiiy-iqtisodiy tizimdir. Mamlakat yer axborot tizimining tarkibiy qismi viloyatlardan tizimlari hisoblanadi [5].

Xulosha

Yer hisobini o‘tkazishda imkonи boricha kamroq harajat talab qiladigan ma’lumotlarni olish va qayta ishlash usullaridan hamda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish zarur. Zamonaviy kompyuterlar orqali aerokosmosuratlardan foydalangan holda joyning elektron raqamli xaritalarini yaratish va ular orqali yer maydonlarini aniqlashning anchagina takomillashgan usullarini qo‘llash mamlakat yagona yer fondining hisobini to‘g‘ri, to‘liq va o‘z vaqtida yuqori sifatda amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot.
– Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadast agentligi Davlat kadastrlar palatasi, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasining Milliy hisoboti. - Toshkent, 2022. - 96 b.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th May, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

3. Tashbayeva X.H. Сугориладиган ерларнинг миқдорий ҳисобини юритиш услубини такомиллаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида): Q.x.f.f.d. (PhD) ... diss. avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 45 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son Farmoni.
5. Babajanov A.R. “Yer kadastro” Toshkent, TIMI, 2011-y. 254 b.